

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.20/30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI

MUSURMANOV NODIRBEK ABDUG‘ANIYEVICH

**IJTIMOY BOSHQARUV JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA
IDENTIKLIK VA FRAKTAL YONDASHUV NISBATI**

22.00.01 – Sotsiologiya nazariyasi, metodologiyasi va tarixi. Sotsiologik tadqiqot usullari

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

**Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по социологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences**

Musurmanov Nodirbek Abdug'aniyevich

Ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda identiklik va fraktal yondashuv nisbati.....3

Мусурманов Нодирбек Абдуганиевич

Соотношение идентичности и фрактального подхода при оптимизации процессов социального управления.....25

Musurmanov Nodirbek Abduganiyevich

The ratio of identity and the fractal approach in optimizing the processes of social management..... 49

E'lon qilingan ishlar

Список опубликованных работ

List of published works 53

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.20/30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI

MUSURMANOV NODIRBEK ABDUG‘ANIYEVICH

**IJTIMOIIY BOSHQARUV JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA
IDENTIKLIK VA FRAKTAL YONDASHUV NISBATI**

22.00.01 – Sotsiologiya nazariyasi, metodologiyasi va tarixi. Sotsiologik tadqiqot usullari

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida № B2023.2.PhD/S138 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati vaboshqaruvi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.dba.uz/uz/tadqiqotchilarga/ilmiy-kengash)va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashgan.

Ilmiy rahbar:	Bekmurodov Mansur Bobomurodovich sotsiologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xolbekov Abdug‘ani Jumanazarovich sotsiologiya fanlari doktori, professor Anarova Shahzoda Amanbayevna texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSc.20/30.12.2019.S.23.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 16-sentabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45-uy. Tel.: (71) 232-60-34; faks: (71) 232-61-04; e-mail: info@dsba.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati vaboshqaruvi akademiyasi Ma‘muriy binosi, 11-qavat, 1104-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati vaboshqaruvi akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№375 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45-uy. Tel.: (71) 232-60-34; (71) 232-61-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “02” sentabr kuni tarqatiladi.
(2025-yil “02” sentabrdagi № 2/9 raqamli reestr bayonnomasi)

T.B.Matibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

Sh.M.Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

A.M. Muxtarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy o'zgarishlar turli mamlakatlar davlat va jamiyat boshqaruvi jarayonlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Turli mamlakatlar va mintaqalarda ijtimoiy davlat shakli va rivojlanish yo'nalishida katta farqlar mavjud¹. Bugungi kunda, har bir davlat taraqqiyotining asosi nafaqat xalqaro munosabatlardagi faol harakati, balki ichki siyosatidagi demokratik boshqaruv tizimi, iqtisodiy barqarorlik, mamlakatda qonun ustuvorligi va inson huquqlarining ta'minlanganligi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivoji, aholining siyosiy-huquqiy madaniyati, fuqarolik pozitsiyasining shakllanganligi va eng avvalo jamiyatda ijtimoiy boshqaruvning rivoji bilan chambarchas bog'liqdir.

Jahonda muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasida, ma'lum ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga asoslangan voqelik va sotsiologik hodisa sifatida ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini tadqiq qilish tobora kuchayib bormoqda. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning qator yetakchi universitetlari, ilmiy-tekshirish institutlari va tadqiqot markazlari identiklik va fraktal yondashuv masalalariga yondashuvlar, xususan etnik guruhlarning ijtimoiy va huquqiy tengligi, o'zgaruvchan jamiyatda davlat, fuqarolik, etnik va diniy identiklikning muvozanati va o'zaro faoliyati, xalqlarning madaniyati, turmush tarzi va etnik identikligi masalalarini tadqiq etishni ilgari surmoqda.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy boshqaruv jarayonlariga bo'lgan e'tibor, jamiyatni demokratlashtirish va milliy ma'naviy qadriyatlar uyg'unligida islohotlarni jadallashtirish yuz bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Biz o'z oldimizga qo'ygan ulkan maqsad va vazifalarni amalga oshirishning eng muhim sharti, eng asosiy zamini ham aslida xalqimizning ishonchidir"² - deb ta'kidlaydi. Hozirda, jamiyatimizda ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda identiklik va fraktal yondashuv nisbati shakllanish mexanizmlari realizatsiyasini hamda takomillashib borishini tizimli ravishda sotsiologik tadqiq etishga imkon beruvchi kategorial va metodologik apparatini takomillashtirish zarurati ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi", 2019-yil 22-fevraldagi PF-5667-son "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-267-son "Hududlarni jadal rivojlantirish bo'yicha aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartibini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagi 137-son "Mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta'minlash hamda "mahalla yettiligi" faoliyatini tashkil etish shora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 13-iyundagi PF-334-son "Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-

¹Béland, Daniel; Morgan, Kimberly J.; Obinger, Herbert; Pierson, Christopher (2021), Béland, Daniel; Leibfried, Stephan; Morgan, Kimberly J.; Obinger, Herbert (muh.), "Introduction", The Oxford Handbook of the Welfare State (inglizcha), Oxford University Press, xxx–20-bet, doi:10.1093/oxfordhb/9780198828389.013.1, ISBN 978-0-19-882838-9

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/291>

huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori, hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Jamiyatning ma’naviy axloqiy va madaniy rivojlanishi, ma’naviy qadriyatlar, madaniy meros tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ilmiy tadqiqotlari dasturining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ijtimoiyboshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda identiklik va fraktal yondashuv nisbatining ilmiy-nazariy hamda metodologik asosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” nomli kitobi hamda chiqargan farmon va qonunlarida belgilab berilgan vazifalarni bajarish yuzasidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar va ustuvor yo‘nalishlarga mos keladi.

Yunon faylasuflari Aflotun³, Arastu va boshqalar, o‘rta asr Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy⁴, Abu Rayhon Beruniy⁵, Nizomulmulk⁶, Amir Temur⁷, Alisher Navoiyning asarlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, bugungi kunda ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda identiklik va fraktal yondashuvning nisbati mazmunini ochib berishda uning shaxs, jamiyat va davlat hayotidagi o‘rnini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Fraktallar nazariyasi qadimgi faylasuf Anaksagorning “Hamma narsada”⁸ degan fikri birinchi matematik ifodani beradi, ya’ni 2.5 ming yil davomida ko‘plab faylasuflar va olimlar tomonidan ishlab chiqilgan o‘ziga xos o‘xshashlik yoki tuzilmalarning o‘zaro joylashishi haqidagi g‘oyaning birinchi miqdoriy taqdimotidir. Fraktallar nazariyasi materiyaning cheksiz joylashishi nazariyasida jadal rivojlanish imkoni sifatida o‘z o‘rnini topdi, bu hodisa diskret fraktal paradigmasi deb ataladi.

Sotsiologiya fanining klassik olimlari J.J.Russo⁹, O.Kont¹⁰, E. Dyurkgeym¹¹, G.Spenser¹², F.Teylor, M.Veber, A.Fayol va boshqalar jamiyatda ijtimoiy boshqarish hamda tizimlashtirish identiklikni anglash va fraktallashish negizida amalga oshishi xususida fikr bildirganlar. Amerika va Yevropa mamlakatlari olimlarining mavzuga doir ilmiy tadqiqot izlanmalari ayniqsa ahamiyatlidir, jumladan B.Mandelbrot¹³,

³Aflotun. Qonunlar. Rus tiliidan Urfon Oтажон tarjimasi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2002 й.

⁴Абу Наср Форобий. “Фозил одамлар шаҳри”. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993 й.

⁵Абу Райҳон Беруний. 100 Ҳикмат, Т.: Фан, 1993 й., Ҳиндистон// Асарлар Т.П. – Т.: Фан 1965. Б 70. 125.

⁶Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. Тошкент: Адолат, 1997 й.

⁷Темур тузуклари. Т.: Фафур ғулом нашриёти, 1991 й.

⁸“Табиат ҳақида” (yunoncha “Pegi Physeos”) номли асарида баён этган. (Афсуски, бу асарнинг тўлиқ матни сақланиб қолмаган, фақат бошқа қадимги муаллифларнинг иқтибослари орқали бизга етиб келган).

⁹Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты / пер. с. Фр. –М.: “КАНОН-пресс”, “Кучково поле”, 1998й.

¹⁰Конт О. Дух позитивной философии. СПб., 2001г.

¹¹Дюркгейм Э. О разделении общественного труда /пер. с фр.; под ред. А.Б. Гофмана, примеч. В.В. Сапова. М.: Канон, 1996. 432 с.

¹²Г.Спенсер., Личность и государство. 2007. Стр., 92-120

¹³Мандельброт Бенуа. Фрактальная геометрия природы // Бенуа Мандельброт; пер. с англ. А.Р. Логунова; науч. ред. А.Д. Морозова. –М.: Институт компьютер. исслед., 2002. -666 с.

L.Semashko¹⁴, V.S.Tixoplav¹⁵, T.Gobbs, M.Ougl¹⁶, Uolter Lippman¹⁷, V.M.Xvostov¹⁸, V.Devison¹⁹, P.Boyenke²⁰, R.Putnam²¹, P.Burdye, A.Tokvil²², R.Darendorf²³, Ye.A.Kronik²⁴, T.Djakobson, R.Ulrix²⁵, A.Djeymos²⁶ singari olimlarning ilmiy izlanishlarida ijtimoiy boshqaruv hodisasining ilmiy-nazariy xususiyatlari mohiyati ochib berilgan, hamda ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish jihatlarining manfaatli tomonlari yoritilgan. MDH olimlaridan V.V.Lokosov, Z.T.Golenkova, V.N.Yakimets, A.V.Tikhonov kabi olimlar ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda jamoatchilik tomonidan identiklik va milliy mental xususiyatlariga alohida e'tibor qaratganlar.

Ijtimoiy boshqaruv konsepsiyasi va fraktallar nazariyasiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mamlakatimiz olimlarimizdan M.B.Bekmurodov²⁷, M.X.Ganiyeva²⁸, N.Aliqoriyev²⁹, I.Saifnazarov, Sh.M.Sodiqova³⁰, O.Ota-Mirzayev, A.J.Xolbekov³¹, T.Matiboyev³², T.Narbayeva, A.Umarov, A.Yuldashev, A.Muxtorov, A.B.Yunusov, Q.Quronboyev, B.Karimov, X.Xusanova, Sh.A.Anarova³³, M.Q.Niyazimbetov³⁴, S.Otamurodov, O.Abduazimov³⁵, X.Xayitov, Sh.Asadov, K.Kalonov³⁶, F.Parmanov, A.Seitov, X.Kadirova³⁷, Sh.Madayeva³⁸ va boshqalar mamlakatimizda ijtimoiy boshqaruv jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari va belgilari, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy asoslarini nazariy jihatdan tadqiq etishda o'z fikr va mulohazalari bilan hissalarini qo'shganlar hamda ilmiy natijalarini

¹⁴ Семашко Л., Макарова Т. Тетрасоциология: стратегическое управление полями и организованная демократия, 2004 г.

¹⁵ Тихоплав В.Ю., Тихоплав В.С. «Гармония Хаоса или фрактальная реальность», Глава 1 «Научные аспекты тайн мироздания», -С.73.

¹⁶ Ougl M. Public opinion and Political dynamics. - Boston: L. etc, 1950.

¹⁷ Lippmann W. Public opinion. N.Y., etc, 1992.

¹⁸ Хвостов В.М. Общественное мнение и политические партии. М.: Политиздат.1976.Околышев Д. А.

¹⁹ Девисон В.Ф. «Жамоатчилик фикри» Британия энциклопедияси, 2020 йил 13 ноябрь.

²⁰ Petra Bohnke: Social Capital and Poverty – Beneficial Networking or Social Closure? FJ NSB 3/ 2009.

²¹ Putnam R. The Prosperous Community: Social Capital and Public Life. The American Prospect, 4, 1993, pp.

²² Токвиль А. Демократия в Америке: Пер. с франц. / Предисл. Гарольда Дж. Ласки. – М.: Прогресс, 1992.

²³ Dahrendorf R. Class and Class Conflict in Industrial Society. L., 1959.

²⁴ Кроник А. А., Кроник Е. А. Психология человеческих отношений. Дубна, 1998.

²⁵ Ульрих Р. Ал-Матуриди и суннитская теология в Самарканде. – Алматы, Фонд XXI век, 1999 й.

²⁶ А. Джеймос Стимсон, Америкадаги жамоатчилик фикри, 2- нашр. Боулдер, Колорадо: Вествиев, 1999 й.

²⁷ Бекмуродов М.Б. Ўзбекистонда жамоатчилик фикри.-Т. Ўзбекистон Республикаси ижтимоий фикр, жамоатчилик маркази: 1999 й., М.Бекмуродов, Моварауннахрда жамоатчилик фикри тарихи. Фан., Тошкент: 1994 й., Замонавий бошқарув социологияси. - Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2020 й

²⁸ Ганиева М.Х.Общественное мнение как фактор развития межнациональных отношений в Узбекистане. –Т.: Университет, 2009 й.

²⁹ Алиқориёв Н.С. Олий таълим тизимини ижтимоий ривожлантириш омиллари. –Тошкент, 2019, - 152 б.

³⁰ Ш.Содиқова Ўзгаришлар социологияси (ўқув кўлланма). – Т.: Akademiya, 2019.

³¹ А.Холбеков Бошқарув социологияси (ўқув кўлланма). – Т.: Akademiya, 2007. – бет.

³² Матибоев. Т.Б. Ўзбекистонда ижтимоий ҳамкорлик тизими: шаклланиши, ривожланиши ва истиқболлари. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси -Т.: Akademiya, 2014. 250б.

³³ AnarovaSh.A. Fraktal modellashtirish. Monografiya. Toshkent: “Universitetsnashriyoti”, 2022.-210 b.

³⁴ Синергетика -2: назария ва амалиёт. М.Қ.Ниязимбетов.: Тошкент. 2022. “Фан зиёси” нашриёти Б. 222

³⁵ Абдуазимов О. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик фикри мониторингини таъминлашда оммавий коммуникациялар социологиясининг ўрни. Тошкент: Fan va texnologiya. – 2016.

³⁶ К.Калонов. Марказий Осиё худудидаги ижтимоий -диний табақалар. Тошкент., 2008 – 123 бет.

³⁷ С.Калонova. Авлодлар алмашинуви янги социо-маданий кадрлар шаклланишининг омил сифатида. – Тошкент 2018... Соц. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси; Х.Кадирова. Қорақалпоқ халқининг миллий идентиклик хусусиятлари. –Тошкент 2020... соц. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.

³⁸ Ш.Мадаева. Идентиклик антропологияси – Тошкент “Noshir” нашриёти, 2015. 175 бет.

chop qilib kelmoqdalar. Ularning asarlari, tadqiqot va maqolalarida mavzuga doir ilmiy-nazariy yondashuvlarga alohida e'tibor qaratilganligi o'rinlidir.

Mamlakatimizda ijtimoiy boshqaruv jarayonlari, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy sohani to'g'ri tashkil qilish, boshqaruv jarayonlarini tizimli tadqiq qilish bosqichlarining turli jihatlari o'rganilgan bo'lsada, ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda identiklik va fraktal yondashuvning nisbati mexanizm sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa bizni mazkur mavzuni sotsiologiya fani nuqtai-nazaridan ilmiy tadqiq etishga undadi.

Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining PZ-20170929253 – "Davlat boshqaruvi sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va davlat xizmatchilari malakasini oshirish bo'yicha maxsus ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda ular faoliyati samaradorligini baholashning zamonaviy uslublarini joriy etish" mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy boshqaruv jarayonlaridagi identiklik va fraktal yondashuvning o'rni va rolini sotsiologik tadqiq etish orqali jamiyatdagi munosabatlar tizimini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy boshqaruvning inson omili bilan bog'liq jihatlari tizimli tadqiq etilib o'zida samarali ijtimoiy munosabatlar tizimini qamrab olgan, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga asoslangan hamda jamiyatda ishonch omilini mustahkamlovchi muhim indikator ekanligini ilmiy asoslash;

ijtimoiy boshqaruv jarayonlarining mamlakatimiz hayotida yanada mustahkamlanishi jamiyatda huquqiy madaniyatning oshishiga, jamoatchilik nazorati kuchayishiga, vatanparvarlikning rivojlanishiga (ya'ni, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faollashuviga) sinergetik effekt sifatida ta'sir qilishini asoslash;

jamiyat a'zolari o'rtasida yuzaga keladigan subfraktal zanjirlar inson faoliyati murakkabligi va kuchiga qarab, tegishli "zanjirlar" yoki umuman "tarmoqlar" o'lchamlari o'nlab, minglab yoki undan ortiq elementlarga yetib borishi, bunday tuzilmalar vaqt o'tishi bilan strukturada ham, faoliyat turining elementlar sonida ham o'zgarishi mumkinligini ilmiy asoslash;

ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda an'anaviy sotsiologik yondashuvlarni fraktal modellashtirish bilan uyg'unlashtirilgan holda mahalla tizimining mikro va makro darajadagi o'zaro bog'liqligi ochib berish;

ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda hududlarning etnomental xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish jamiyatni integratsiyalashuv jarayonlarini intensivlashtirishini ilmiy-empirik asoslash;

ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda identiklik va fraktal yondashuv nisbatini shakllantirishga doir sharoitlar, usullar va faktorlarni aniqlash.

Tadqiqotning obykti O'zbekistonda ijtimoiy boshqaruv jarayonlarining mavjud holati.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekistonda ijtimoiy boshqaruv jarayonlaridagi identiklik va fraktal yondashuv hodisalari tizimli tahlilni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada sotsiologiyaning anketa so‘rovi, ekspert so‘rovi, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy boshqaruv tendensiyalarining mamlakatimiz hayotida yanada mustahkamlanishi, jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalishi, jamoatchilik nazoratining kuchayishi hamda vatanparvarlikning rivojlanishi mahalla hududida “sinergetik effekt” hodisasini yuzaga keltirishi asoslab berilgan;

ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda an’anaviy sotsiologik yondashuvlarni fraktal modellashtirish bilan uyg‘unlashtirish orqali mahalla tizimining mikro va makro darajadagi o‘zaro bog‘liqligi sotsiologik ochib berilgan;

identiklik va fraktal yondashuv nisbatini matematik modellashtirish yordamida ijtimoiy boshqaruv tizimlarining kasbiy, sotsial va ma’naviy samaradorlik indeksi ishlab chiqilgan hamda to‘rt o‘lchovli sotsiologiyana nazariyasining shakllanishi asoslangan;

fraktal yondashuv va identiklikni uyg‘unlashtirish asosida ijtimoiy boshqaruvning ko‘p darajali (polilevel) va o‘zaro bog‘liq (interdependensiya) tarmoq tuzilmalari ijtimoiy barqarorlik modellarining yo‘lga qo‘yilishi sotsiologik asoslangan. Fraktal yondashuv orqali matematik modellashtirish kompyuter simulyatsiyalari yordamida turli ssenariylarni sinab ko‘rish imkonini berib, bu esa shaharlarni aqlli tizimga aylantirishda (smart city) foydali ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jamiyatimizda ijtimoiy boshqaruv omilining shakllanishi, rivoji va yanada sayqallanib borishi yuzasidan ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan;

ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish modellarining integratsiyalashuv xususiyatlari aniqlangan, identiklikning ijtimoiy-statistik ko‘rsatkichlari ekspert baholash metodikasi sifatida taklif etilgan;

fraktal yondashuv yordamida ijtimoiy boshqaruv tizimlarini modellashtirish, ularning har bir bo‘g‘ini o‘z ichida va butun tizim bilan uyg‘unlikda ishlashini ta’minlashi va identiklik tamoyiliga asoslangan holda tashkilot yoki boshqaruv strukturasi ichidagi muvofiqlik, qadriyatlar birligi va maqsadlar uyg‘unligi oshirilishi aniqlangan;

fraktal yondashuvning ijtimoiy boshqaruvni optimallashtirish jarayonlariga ta’siri o‘rganilgan bo‘lib, ta’sir etuvchi subyekt va manbalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy ishning maqsadiga muvofiqligi, respublika va xalqaro ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, so‘rovlar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va uning ijtimoiy

siyosiy va milliy ma'naviy asoslarini o'rganishga qaratilgan meyoriy-hujjatlarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitish, oliy ta'lim muassasalarida davlat va jamiyat boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy jihatlariga oid fanlarni o'qitishda ma'ruza matnlari hamda o'quv va o'quv metodik qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatidan ijtimoiy boshqaruv jarayonlarida identiklik va fraktal yondashishda va ijtimoiy siyosat bilan shug'ullanuvchi davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla hamda fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida qo'llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ijtimoiy boshqaruvda identiklik va fraktal yondashuv nisbati bo'yicha olingan ilmiy natijalar quyidagi faoliyatlarda qo'llanildi:

ijtimoiy boshqaruvning mamlakatimiz hayotida yanada mustahkamlanishi jamiyatda huquqiy madaniyatning oshishiga, jamoatchilik nazorati kuchayishiga, vatanparvarlikning rivojlanishiga (ya'ni, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faollashuviga) sinergetik effekt sifatida ta'sir qilishi singari ilmiy xulosalaridan, o'zbek xalqining identikligiga oid tizimlashtirilgan sotsiologik atama, tushuncha, tamoyil hamda konseptual yondashuvlarga oid takliflardan "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2024 yildagi O'zbekiston yoshlari – 2024: qadriyatlar, muammolar va kutilmalar haqida dasturida nazarda tutilgan Yoshlar tashkilotlari faoliyatini kommunikativligini takomillashtirishga qaratilgan dasturda foydalanilgan ("Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2025-yil 14-martdagi 01-16/51-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy xulosalar "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazining ushbu yo'nalishdagi ish faoliyati samaradorligini oshishiga xizmat qilgan;

ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda an'anaviy sotsiologik yondashuvlarni fraktal modellashtirish bilan uyg'unlashtirgan holda, mahalla tizimining mikro va makro darajadagi o'zaro bog'liqligi kabi ilmiy xulosalaridan O'zbekiston mahallalari uyushmasi tizimi xodimlarining malakasini oshirish va mahallalarni metodik ta'minlash o'quv-uslubiy markazining 2025-yil mart oyidagi "O'zbekiston mahallalarida milliy qadriyatlar va vatanparvarlik haqida" dasturida nazarda tutilgan Mahallalar faoliyatlarini kommunikativligini takomillashtirishga qaratilgan dasturda foydalanilgan (O'zbekiston mahallalari uyushmasi tizimi xodimlarining malakasini oshirish va mahallalarni metodik ta'minlash o'quv-uslubiy markazining 2025-yil 18-martdagi 01-03/08-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston mahallalari uyushmasi tizimi xodimlarining malakasini oshirish va mahallalarni metodik ta'minlash o'quv – uslubiy markazining ushbu yo'nalishdagi ish faoliyati samaradorligini oshishiga xizmat qilgan;

Dissertatsiyaning ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda identiklik va fraktal yondashuv nisbatini shakllantirishga doir sharoitlar, usullar va faktorlarga oid takliflari, tavsiyalari va xulosalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanalining 2025-yilga mo'ljallangan "Ochiq studiya" tok-shou dasturida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanalining 2025-yil 26-

martdagi №15-20/186-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy xulosalar telekanalning ish faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda hududlarning etnomenal xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishning jamiyatdagi integratsiyalashuv jarayonlarini intensivlashtirishi ilmiy-empirik asoslanganligi xususidagi takliflar "Toshkent viloyat teleradio kanali" DM faoliyatida "Yangi kunda yana birgamiz" dasturi 2025-yil fevral oyidagi sonida foydalanilgan (Toshkent viloyat teleradio kanali DM ning 2025-yil 27-martdagi №01-03-48-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalardan telekanalda mamlakatimizda ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda, identiklik va fraktal yondashuvda, o'zbek identikligining shakllanib borishi jarayonida, tarixiy, ijtimoiy, ma'naviy omillarning zamonaviy globallashtirish dunyoga integratsiyalashuv jarayonlarini yoshlar va jamoatchilik orasida keng targ'ib qilishda qo'llanildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyada olingan natijalar 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishining natijalari bo'yicha jami 17 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan, shundan 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan Respublika jurnallarda, 1 tasi xorijiy nashrda, 7 ta respublika miqyosidagi va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 152 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqot metodlari keltirilgan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, olingan natijalarning ishonchliligi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ijtimoiy boshqaruv jarayonlari tarixi va nazariyalari tahlili**" deb nomlangan bo'lib, uchta paragrafdan iborat. Unda boshqaruv hamda ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishning konseptual va institutsional asoslari, uning tarixiy taraqqiyotning muayyan davrida turli davlatlar millatlar, millatlar identiklik xususiyatlari bilan o'zaro aloqadorlikda tadrijiy rivojlanish xususiyatlari o'rganildi va mavzuga oid nazariyalar va yondashuvlar tahlil qilingan.

Tarixdan ma'lumki, o'z o'rnida har bir davrlardagi jamiyatlarning turmush tarzi, hayotga bo'lgan qiziqishlari, yashash sharoiti, turli xil maqsadlar, intilishlar va identikligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Har bir davrning ijtimoiy xususiyatlari, siyosiy va ijtimoiy tizimi hamda turmush tarzidan kelib chiqib, ijtimoiy boshqaruv jarayonlari ham o'ziga xos namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy boshqaruv jarayonlari xususida buyuk ajdodlarimiz al-Forobiy, Beruniy,

Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab yuksak tafakkur egalari bo‘lgan bobokalonlarimiz yashagan ijtimoiy-madaniy muhitda shakllangan tafakkur tarzi naqadar teran va ilmiy asosga qurilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy majlisga murojaatnomasida “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” va “Jamoatchilik ma’qul desa – ma’qul, noma’qul desa – noma’qul bo‘ladi”³⁹ – deya bildirgan fikrlari hozirgi kunda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanuvchi xalq demokratiyasi barpo etilayotgan bir davrda ijtimoiy boshqaruv jarayonlariga ham mustahkam tayanishi va davlat boshqaruvini amalga oshirishda hal qiluvchi kuch ekanligini anglatadi.

Shu boisdan ham, ijtimoiy boshqaruv jarayonlari jamiyatda shunday ijtimoiy muhitni yaratadiki, bunda fuqarolar o‘zaro hamkorlik asosida ijtimoiy va boshqa ehtiyojlarini qonuniy ravishda o‘zlari qondirib boradi.

Manbalarga ko‘ra, boshqaruv sotsium faoliyatini davlat tomonidan qonunlar yordamida huquqiy tartibga solishdir. “Boshqaruv” tushunchasi mazmuniga berilgan ta’riflarning aksariyatida boshqaruv ijtimoiy boshqaruv sifatida qaraladi, ya’ni ijtimoiy tuzdagi tizimlar bilan chegaralanadi⁴⁰.

Ijtimoiy boshqaruv inson faoliyatining muayyan, ancha umumiy sohasini o‘rganadi. Uning vazifasiga jamiyat holati va (iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy, ijtimoiy) rivojlanishi sharoit hamda jihatlariga, ya’ni jamiyat turiga, boshqaruv subyekt va obyektlarining tegishli turlariga, o‘zaro munosabatlar sohasiga muvofiq boshqaruv faoliyatining tamoyil va mexanizmlari, shakl hamda usullarini aniqlash, tegishli ijtimoiy texnologiyalarni asoslash va ishlab chiqish kiradi. Bu ijtimoiy boshqaruv obyektini ixchamlashtirish imkonini beradi⁴¹. Unda muallif quyidagi jihatlarni ko‘rsatib o‘tgan:

Ijtimoiy tuzilmalar (boshqaruv obyekti) doirasida o‘z-o‘zini ijtimoiy tashkillashtirish jarayonlari. Ayrim kishilar va guruhlar xulq-atvori va faoliyatiga, ularning qadriyat va mo‘ljallari hamda o‘zaro munosabatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan guruh doirasida tartibga solish tabiiy jarayonlari (jamoatchilik fikri, an’analar, odatlar, ijtimoiy me’yorlar, liderlik va sh.k.) majmuidir.

Ijtimoiy boshqaruv turli davrlarda odamlar orasida diniy e’tiqod omiliga bevosita ko‘p jihatlari bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Odamlarda ularning ijtimoiy hamjihatligini ta’minlash muammosi ko‘pxudolik, fetishizm muhitida samaradorligini topish ma’qul edi. Shaxslarni ilk bora xudo darajasida emas, alohida, yetuk insonlar sifatida anglash lozimligi to‘g‘risidagi ta’limotlarning Muso, Gomer, Konfutsiy, Zardusht, Budda singari buyuk shaxslar tarix sahnasiga chiqqandan so‘ng shakllanganligini bilishimiz mumkin. Ana shunday muhitda yakkaxudolik asosidagi diniy ta’limot–Zardo‘shiylik yuzaga keldi.

Xitoyda Konfutsiy jamiyatni mustahkam munosabatlar tizimiga ega bo‘lgan oilaga o‘xshatib, u odamlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimini besh ko‘rinishli, adolatli tengsizlikni ifoda etuvchi qismlarga ajratadi. Ular quyidagilar: 1) ota va farzand; 2) er

³⁹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2020 йил 24 январ.

⁴⁰Ш.М.Содиқова, Ўзгаришлар социологияси (Ўқув қўлланма) . – Т.: Академија, 2019. – 6 бет.

⁴¹Ш.Содиқова Ўзгаришлар социологияси (Ўқув қўлланма). – Т.: Академија, 2019. 23-6

va xotin; 3) katta-kichik; 4) ustoz-shogird, 5) hukmdor va fuqarolararo munosabatlarning tengsizligi. Inson, Konfutsiy fikriga ko‘ra, nima xayoliga kelsa shuni qilishga emas, balki jamiyat tomonidan belgilab qo‘yilgan, ijtimoiy tabaqa mohiyatidan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishga mas‘uldir⁴².

Mavarounnahrda ijtimoiy boshqaruv jarayonlari tarixini o‘rganishda Abu Mansur al-Moturidiyning o‘rni beqiyosdir. Uning “Kitab at Tavhid”, “Kitab al maqomat” va “Kitab raddul avomil lil adla va lil kabiy”⁴³ asarlari muhim ahamiyatga egadir. Al-Moturidiy insondagi ixtiyor, tanlash imkoniyati jamoaga qarshi yo‘naltirilmasligi, shaxs davlat oldida mas‘ul bo‘lgani kabi, davlat ham shaxs oldida mas‘ul bo‘lishini nazariy asoslaydi.

Ulug‘mutafakkir Al-Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida jamoa bo‘lib yashaganda odam nafaqat o‘zining moddiy ehtiyojlarini qondiradi, balki “Mukammallikning yuqori nuqtasiga” yetishadi, ya’ni boshqacha qilib aytganda, birga yashash, mehnat qilish jarayonida inson ruhiy quvvat oladi, mukammallashadi va o‘z moddiy va ma’naviy qadriyatlarini shakllantirish uslublarini takomillashtiradi⁴⁴”.

Fikrimizcha, Forobiy o‘z asarlarida “Mukammallikning yuqori nuqtasiga” deb aynan jamiyat vakillarining jamiyatdagi mavjud pastki qatlamdan yuqori qatlamga ko‘tarilish uchun jamoaviy harakatini nazarda tutgan, bu esa ijtimoiy boshqaruvning muhim omilidir. Aynan shunday harakatlar zamonaviy sotsiologiyada ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish sifatida namoyon bo‘ladi. Forobiy jamiyatning obro‘li shaxslari, olimlari, oqil kishilari ijtimoiy taraqqiyot hamda itimoiy boshqaruvning harakatlantiruvchi kuchlaridir, deb hisoblaydi.

Ulug‘ bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” deb nomlangan qomusiy kitobida shunday yozgan: “Tuzilish va buzilish natijasida unsur bo‘laklari bir-biriga qo‘shilib, dunyo obod bo‘lgan va olam tartibga tushgan⁴⁵”.

Ibn Xaldun o‘zining “Muqaddima” asarida asosiy mavzuni “ijtimoiylikka” bag‘ishlaydi va bu masalada Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushdlarning fikrlarini rivojlantiradi. Ibn Xaldun “ijtimoiylikning” davlat bilan uzviy aloqada ekanligini ta’kidlaydi. Davlatni “ijtimoiyliksiz” tasavvur qilib bo‘lmaganidek, “ijtimoiylikni” ham davlatsiz tasavvur etish mumkin emas, ya’ni uning ta’kidlashicha, davlat va mulk “ijtimoiylik” uchun monand (zarur) bo‘lganidek, har qanday “shakl ham material uchun monanddir⁴⁶”.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida o‘z davridagi barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beradi, mazkur sotsiologik tasniflashdan maqsad, ularning jamiyatdagi ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligi asarning mazmunini tashkil etadi.

Pozitiv sotsiologiya asoschisi O.Kontning ta’kidlashicha, jamiyat va davlat boshqaruvidagi ijtimoiy muvofiqlik-bu shaxslar va ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining

⁴²Қаранг: М.Б.Бекмуродов. Замоनावий бошқарув социологияси: монография / - Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.-13-б.

⁴³Қаранг: Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар). – Тошкент: А.Қодирий, 1999. – Б.77.

⁴⁴Фаробий “Фозил одамлар шаҳри”. Т. “Янги аср авлоди” 2016, 297 бет.

⁴⁵Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар, 1-том.Т., 1968, 404-бет

⁴⁶Ибн Халдун, Мукаддима, Т.: Фан. 1990, 103 бет

bir-biriga mosligidir. Mehnatning ijtimoiy adolat asosida taqsimlanishi, ijtimoiy barqarorlik shartlari va omillari, turli guruh va qatlamlar manfaatlarini muvofiqlashtirishda davlat va shaxslarning oʻrni toʻgʻrisidagi fikrlari bugungi kunda ham muhimdir⁴⁷.

Ingliz olimi Gerbert Spenserning “Sotsiologiyani yaratilishi”, “Sotsiologiya tadqiqot predmeti sifatida”, “Etikaning yaratilishi” kitoblari⁴⁸ ijtimoiy jarayonlar mohiyatini anglash va jamiyat boshqaruvida muhim oʻrin tutadi.

G.Spenserning ijtimoiy jarayon va borliq haqidagi gʻoyalarini oʻrganishga polshalik sotsiolog Lyudvig Gumplovich kirishgan edi. U sotsiologiya tamoyilini tushuntirish omili sifatida Spenser tomonidan asoslangan biologik tushunchalarga qarshi chiqdi⁴⁹.

Avstriyalik psixolog va sotsiolog Zigmund Freyd nuqtayi nazariga koʻra, ijtimoiy jarayonlar va jamoalar mohiyatini ochishda oʻzining “libido” (xohish, istak, rohatbaxsh narsalarga moyillik) toʻgʻrisidagi taʼlimotini shaxs va jamiyatni boshqarishdagi ustuvor mavqega ega deb hisobladi⁵⁰. U odamlar muayyan rahbarlar atrofida faqat manfaatlar negizidagina emas, balki hissiy mayllar, emotsional istak-xohishlar, yoqtirish negizida uyushadilar, deb hisoblaydi.

XIX asr sotsiologik nazariyalari rivoji bugungi kunga kelib, sotsiologiyani hamma tan olgan universal ijtimoiy fanga aylanishiga sharoit yaratib berdi. Bu imkoniyatlarning yaratilishi V.Pareto, F.Tyonnis, E.Dyurkgeym, G.Zimmel, M.Veber, P.Sorokin va boshqa sotsiologlar ijodi bilan ham bogʻliqdir. XX asr boshlaridagi Italiyalik sotsiolog Vilfredo Pareto (1848-1923) oʻzining “Umumiy sotsiologiya tartibi” kitobida ijtimoiy boshqaruvning istiqbolini pozitiv anglashda koʻrganligi bilan eʼtiborlidir⁵¹.

Dissertatsiyaning **“Ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishda identiklik va fraktal yondashuv nisbati”** deb nomlangan ikkinchi bobida, ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda fraktal yondashuv konseptual va institutsional asoslari, millatlar identiklik xususiyatlari bilan oʻzaro aloqadorlikda tadrijiy rivojlanish jihatlari ijtimoiy boshqaruv jarayonlariga taʼsir qiladigan sotsial omillar oʻrganilgan.

Hozirgi vaqtda fraktallar nazariyasi asosida fizika, matematika, sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot, lingvistika va boshqasohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mazkur nazariya asoschisi asli fransuz boʻlib, Amerikada faoliyat yuritgan buyuk matematik olim Benua Mandelbrotdir. Benua Mandelbrot fenomenologiyaga kuchli turtki bergan fraktal geometriyani, kamalak, chaqmoq, bulut haqida, nozik rang-barang konfiguratsiyalar, umumiy naqshga ega hayratlanarli va murakkab tuzilmalarni bayon etishi mumkin boʻlgan matematik tilni yaratdi⁵².

⁴⁷Комаров М.С., Введение в социологию, М.: Наука, 1994. с 36.

⁴⁸Каранг: Спенсер / А. Ф. Грязнов // Новая философская энциклопедия : в 4 т. / пред. науч.-ред. совета В. С

⁴⁹Каранг: Л.Гумплович. Социологические очерки. Одесса, 1899.стр.93

⁵⁰Каранг: Фрейд З. Психология бессознательного. (Перевод) М.:Просвещение, 1990. стр.295

⁵¹Каранг: «Компендиум по общей социологии. 2-е изд. Парето В.» М.2008.стр.125-127

⁵²Мандельброт Бенуа. Фрактальная геометрия природы // Бенуа Мандельброт; пер. с англ. А.Р. Логунова; науч. ред. А.Д. Морозова. - М.: Институт компьютер. исслед., 2002. -666 с.

B. Mandelbrot o'zi yaratgan nazariyani "shaklsizlarning morfologiyasi" sifatida tavsiflaydi⁵³. Xaos atamasi - bu "tartibsizlik"ni anglatadi. Fraktal yondashuv bilan, xaos tartibsizlik bilan sinonim bo'lishni to'xtatadi va nozik tartiblangan dinamik tuzilmaning mohiyatini egallaydi. Fraktal tartibsiz o'ziga-o'zi o'xshashlikni anglatadi. Ushbu belgilar turli bosqichlarga, darajalarga, shakllarga va jiddiyligining namoyon bo'lish darajasiga ega. Fraktallar, odatda, ta'riflab bo'lmaydigan jarayonlarni tasvirlash uchun qulay model hisoblanadi.

Umuman hayotning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi, uning tirik tabiatdagi o'ziga xos namoyonliklari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy rivojlanishining mohiyatini fraktal matritsalar asosida tushunish va tavsiflashga hozirgi vaqtda tabiatshunoslikning zamonaviy sinergetik paradigmasi doirasida erishish mumkin.

Hozirgi adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bizning maqsadlarimiz uchun yetarli darajada ishlaydigan fraktallar ta'rifini bermaydi. Ko'pgina mualliflar buni juda keng talqin qilishadi va ko'pincha fraktalli jarayonning o'zi emas, balki ularning natijalarini tavsiflashga urinishlar mavjud. Bizni fraktalli jarayonning o'zi qiziqtiradi. Inson munosabatlari jarayonida (mulk, ma'lumot, intellekt, his, fiziologik va boshqalar) jamiyat a'zolari o'rtasida yuzaga keladigan subfraktal zanjirlar sifatida tushuniladi. Vaqt va makonda bunday munosabatlar inson faoliyati deb ataladigan jarayonda jamiyatning ikki yoki undan ko'p a'zolari o'rtasida shakllanadi. Ushbu harakatning murakkabligi va kuchiga qarab, tegishli "zanjirlar" yoki umuman "tarmoqlar" o'lchamlari o'nlab, minglab yoki undan ortiq elementlarga yetib borishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, bunday tuzilmalar vaqt o'tishi bilan strukturada ham, faoliyat turining elementlar sonida ham o'zgarishi mumkin.

Jamiyatda noaniqlik darajasini pasaytirish muammosiga qaytadigan bo'lsak, jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgan tashkilotlar kabi aniqlovchi omillarni, davlatdan boshlanib, jamiyatning asosiy bo'g'ini-oila jamiyatdagi yo'l qo'yib bo'lmaydigan noaniqlik darajasini mutlaqo yo'q qilmaydi, shu sababli jamiyat o'z-o'zidan ijtimoiy fraktallarni keltirib chiqaradi, bu esa butun jamiyatning rivojlanishiga imkon beradi.

Agar fraktal makro va mikro olamni birlashtiruvchi element bo'lsa identiklik mavjud bo'laklarning har biri o'zini anglagan subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, "fraktal" hodisasi oxir-oqibat barcha tirik, chiziqli bo'lmagan, ochiq, o'ta murakkab o'zini-o'zi tashkil etuvchi tizimlarning tarkibiy birligi sifatida belgilanadigan narsani tushunilsa, identiklik umum tarkibidagi har bir element mustaqil amal qila olish salohiyatini namoyon etadi.

Benua Mandelbrot tomonidan fraktal tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Fraktal qismlardan tashkil topgan butun yaxlit tuzilmadir"⁵⁴.

Fraktalning eng asosiy xususiyati—o'z-o'ziga o'xshashlik, ya'ni fraktalning katta bo'lmagan qismi, butun fraktal haqida axborot beradi (har qanday kichik qism butun fraktalga o'xshashdir). Mazkur hodisa fraktalning masshtablik, invariantligi deyiladi. Fraktallikka bulut, tog', daryo, daraxt, qor parchasi va h.k. tabiat hodisalarini misol qilib keltirish mumkin.

⁵³Anarova Sh.A. Fraktallar nazariyasi va nfraktal grafika. Darslik.T.: "Universitet", 2021. 254 b.

⁵⁴Мандельброт Б. Фрактальная геометрия природы. – М., 2002. – С 16.

Chiziqli fraktallarda qism bilan butun orasida to'liq o'xshashlik bo'ladi. Nochiziqli fraktalda qism bilan butun o'rtasida qisman o'xshashlik namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tizimda chiziqli fraktal bo'lishi mumkin emas. Ya'ni hech qachon sotsium bilan individ, xalq manfaatlari bilan mafkura doimo bir-biriga aynan o'xshash bo'lishi mumkin emas. Shu sababdan ijtimoiy tizimda nochiziqli fraktal ko'proq namoyon bo'ladi. Agar ijtimoiy tizim chiziqli fraktalga asoslansa, unda xalq bilan jamiyat orasidagi mutlaq ayniyatli o'xshashlik totalitarizmga olib kelishi mumkin. Jamiyat ochiq tizim sifatida emas, balki yopiq tizim bo'lib, mafkuraning buramali mixiga aylanib qoladi. Shu sababdan ham ijtimoiy tizimda muayyan erkinlik (xaos qismi ham) mavjud bo'lishi kerak⁵⁵.

Ye.N.Kniyazeva, S.P.Kurdyumovlar bunday holatga bog'liq misol keltiradi: "Oila qanday bo'lsa jamiyat ham shunday", "Inson qanday bo'lsa, sotsium ham shunday"dir. Qisqa aytganda, yaxlitlikning tashkillanishning har xil darajalarida bir-birini takrorlaydi va kichik masshtabda namoyon bo'luvchi xususiyat va jarayonlarni ochish orqali, bizlar keng masshtabdagi yaxlit obrazni bilishimiz mumkin bo'ladi.

Fraktallik tushunchasi faqatgina tabiat obyektlaridagina emas, balki inson faoliyati natijasida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan: "Kitobning xohlagan beti uning yaxlitligini ifodalaydi" (L.Flashen). Kitobning har bir beti uning ajralmas qismi bo'lishi kerak va o'zida kitobning chiroyli fraktal strukturasi elementlari hisoblangan muammo, ritm, garmoniya va h.k.lar butun g'oyaviy mazmuni olib borishi lozim" (Ye.N.Kniyazeva).

Fraktallarning xususiyatlarini tadqiq etishning kengaytirilishi natijasida ijtimoiy hodisalarni tadqiq etishda ham qo'llanildi. Inson o'zining texnik fraktalligini takomillashtirib qo'ymasdan, ijtimoiy fraktalligini ham rivojlantirib boradi. Fraktallik ijtimoiy tizimlarning ham o'ziga xos xususiyati hisoblanadi: jamiyat, til, inson fikrlashi va shu kabi hodisalar. Ijtimoiy sohada ham fraktallar mavjud. Urug'ning ma'lum bir strukturasi o'z - o'zini takrorlaydi. Har qanday jamiyat oiladan tashkil topgan. Xalq kattaroq oila bo'lsa, butun insoniyat esa katta oiladir.

Ijtimoiy sohadagi fraktallar, ya'ni qism va butunning o'z-o'ziga o'xshashligi g'oyasini Farobiy qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin. Farobiy jamiyatni to'liq va to'liq emas jamiyatlar tipiga ajratadi. To'liq jamiyatda shahar (kichik jamiyat), xalq (o'rta jamiyat) va insoniyat (buyuk, katta jamiyat). To'liq emas jamiyatning uchta darajasini ko'rsatib o'tadi: oila, qishloq, shahar.

Farobiy jamiyat tuzulishini olam qurilishiga o'xshatadi hamda ijtimoiy organizm insonning biologik organizmga o'xshashdir. Hukmdorning funksiyasi tanani davolavchi tabibning funksiyasiga o'xshashdir. Faqat hukmdor tanani emas, balki ruhni (ya'ni, ijtimoiy ma'noga ega inson qobiliyatini) davolaydi⁵⁶.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, borliq fraktallik (invariantlik) asosda qurilishini aytish mumkin. Bu esa, borliqning fraktalligi qonunining namoyon bo'lishini bildiradi. Fraktal yondashuv ushbu qonuniyatni modellashtirish bilan shug'ullanadi. Fraktal qonuniyatning namoyon bo'lishi birlik qonuniyatining kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lib, biologik va nobiologik obyektlar yagona tamoyilga

⁵⁵М.Қ.Ниязимбетов. Синергетика -2: назария ва амалиёт. Тошкент. 2022. "Фан зиёси" нашриёти 229 б.

⁵⁶Касимжанов А.Х. Абу Наср аль Фаробий. Москва "Мысль", 1982. – 142 б

bo'ysunadi: qism va butun strukturaviy jihatdan bir-biriga o'xshashdir.

Olam qurilishining fraktal tamoyili—olamning yangicha tasavvur etishga yo'naltirilgan yangicha konsepsiyadir. Fraktal metodologiyaga ko'ra, olam, inson fraktal xususiyatga ega. Bu fraktal tuzilmaning har bir darajasidagi axborot yana va yana qaytalanadi, ya'ni ma'lum bir qonuniyat kasb etadi. Olam matryoshka (bir birining ichiga solingan yog'och qo'g'irchoqlarning har biri), ya'ni fraktalli struktura sifatida tasavvur etiladiki, ammo uning qaysi darajasi eng muhim, asosiy ekanligi ma'lum emas⁵⁷.

Har xil evolyutsiyalar orasidagi o'zaro o'xshashlikdan rivojlanishning eng umumiy nazariyasi ko'riladi. Masalan, sinergetika nazariyasi xaosdan tartibga, tartibdan xaosga o'tish evolyutsiyaning barcha darajalarida umumiy sxemaga ega ekanligiga asoslangan.

Ijtimoiy fraktallarni o'rganishimiz jarayonida bevosita ijtimoiy va individual uyg'unlikning asosiy elementlarini (sohalarini) ochishini kuzatishimiz mumkin. Ushbu tahlilda biz o'zimizni asosan ijtimoiy totuvlik elementlari bilan cheklaymiz. Ijtimoiy totuvlikning to'rtta asosiy elementlari (sohalari) guruhлари mavjud: Resurslar, Jarayonlar, Tuzilishlar va Holatlar (RJTH). Ular har qanday joyda va har qanday vaqtda har qanday jamiyatning mavjudligi va uyg'unligi uchun zarur va yetarli.

Ijtimoiy uyg'unlikning asosiy elementlarini asosiy bloki tetrasotsiologiya aksiomasi tomonidan aniqlanadigan O-(Odamlar), A-(Axborot), T-(Tashkilot), N-(Narsalar) OATNning to'rtta sferik manbalaridir.

Keyingisi esa jarayonlar aksiomasi: har bir OATN resursi to'rtta zarur va yetarlicha ko'paytirish jarayonlaridan o'tadi: Ishlab chiqarish (I), Tarqatish (T), Almashinuv (A) va Iste'mol (I). Ushbu jarayonlar o'ta katta funksional ijtimoiy komplekslarni ifodalaydi, ular sferik jarayonlar deb nomlanadi va ijtimoiy dinamikani hosil qiladi. Ular har qanday jamiyatning dinamikasini tashkil qiladi va tugatadi. To'rtta zarur va yetarli jarayonlar majmuasi quyidagicha belgilanadi - ITAI.

Holatlar aksiomasi: IATT tizimi tarixiy davrda to'rtta zarur va yetarlicha evolyutsion holatlardan o'tadi: Uyg'unlik (U), Muvozanatsizlik (M), Pasayish (P) va O'lim (O'). Mazkur holatlar har qanday jamiyat evolyutsiyasining o'ta katta tarixiy bosqichlarini aks ettiradi va ijtimoiy genetikani shakllantiradi. To'rtta zarur va yetarlicha ijtimoiy holatlar majmui quyidagicha belgilangan: UMPO'.

Keyingi aksioma, uyg'unlik aksiomasi: OATN, ITAI va IATTning har bir tarixiy majmuasi uchun ularning tarkibiy qismlarining "Oltin kesimi"ning uyg'unlik nisbati mavjud. Sferik tarkibiy qismlarning uyg'un "Oltin" nisbati ularning muvozanati, mustahkamligi, optimalligi, eng yuqori samaradorlik va farovonlik holatlaridir.

Har bir OATN manbalarini doimiy ravishda ko'paytirish (mavjudligini ta'minlash) uchun birinchi aksiomaga muvofiq OATN qismlarining tegishli majmuasi talab qilinadi. Shunday qilib, har bir OATN to'rt qismga bo'lingan bo'lib, OATNni takrorlashga resurs sifatida zarur va yetarli bo'ladi. Bu asosiy matritsa deyiladigan 4x4 sferik matritsa bilan ifodalanadi:

$$\begin{aligned}O &= O_1 + O_2 + O_3 + O_4, \\A &= A_1 + A_2 + A_3 + A_4,\end{aligned}$$

⁵⁷Синергетика -2: назария ва амалиёт. М.Қ.Ниязимбетов Тошкент. 2022. "Фан зиёси" нашриёти 236 б

$$T = T_1 + T_2 + T_3 + T_4,$$

$$N = N_1 + N_2 + N_3 + N_4,$$

Ijtimoiy uyg'unlik fraktallari sferik uyg'unlik nisbatlar aksiomasi bilan belgilanadi: har qanday sfera matritsasining har qanday elementining har bir ko'rsatilgan raqamli qiymati uchun har qanday sfera matritsasining boshqa barcha elementlarining raqamli qiymatlarining uyg'un ("oltin") nisbati mavjud. Yoki: har qanday sferik matritsaning har qanday elementining son qiymatining o'zgarishi ushbu matritsaning butun garmonik (uyg'unlik) nisbati o'zgarishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda identiklik va fraktal yondashuv sotsiologik tahlili"** deb nomlangan. Ushbu bobda ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda identiklik va fraktal yondashuv hamda boshqaruv modellarining konseptual va institutsional asoslari, fuqarolik jamiyati institutlari jumladan mahalla faoliyatining fraktallashuvi, identiklik xususiyatlari bilan o'zaro aloqadorlikda tadrijiy rivojlanish jarayonlari sotsiologik tadqiqotlar orqali ochib berilgan.

